



ОСНОВАН  
**1996** году  
ISSN 2091-5039

**№1**  
**2023**



ТАШКЕНТСКИЙ ПЕДИАТРИЧЕСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ

# ПЕДИАТРИЯ

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА  
ТАШКЕНТСКИЙ ПЕДИАТРИЧЕСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ

# Педиатрия

научно-практический журнал

Зарегистрирован Агентством печати и информации Республики Узбекистан 29 декабря 2006 году.  
Свидетельство № 02-009

Решением Высшей аттестационной комиссии (ВАК) при Кабинете Министров Республики Узбекистан журнал «Педиатрия» включен в Перечень ведущих рецензируемых научных журналов и изданий, выпускаемых в Республике Узбекистан, в которых рекомендована публикация основных результатов диссертационных исследований на соискание ученой степени доктора медицинских наук (Утверждено Постановлением Президиума ВАК РУз. № 201/3 от 30 декабря 2013 года)

Публикация рекламы на коммерческой основе.  
За правильность рекламного текста ответственность несет рекламодатель.

Рекламодатели предупреждены редакцией об ответственности за рекламу незарегистрированных и не разрешенных к применению Министерством здравоохранения РУз лекарственных средств и предметов медицинского назначения.

Рукописи, фотографии и рисунки не рецензируются и не возвращаются авторам. Авторы несут ответственность за достоверность излагаемых фактов, точность цифровых данных, правильность названий препаратов, терминов, литературных источников, имен и фамилий.

Адрес редакции:  
100140, Республика Узбекистан,  
г.Ташкент, ул.Богишамол, 223  
тел.: +99871 260-28-57;  
факс: +99871 262-33-14  
сайт: tashpmi.uz/ru/science/journal\_pediatry  
Индекс для подписчиков: 852  
Распространяется только по подписке.

Заведующая редакцией: В.Р. Абдурахманова  
Технический редактор: М.И. Мансурова  
Редакторы: Д.И. Усмонова, Н.У. Мехмонова Н.И. Гузачева  
Дизайн и верстка: А.Асраров  
Формат 60x84 1/8, усл.печ.л. 21. Заказ № 1297  
Тираж 50 шт  
Подписано в печать 29.04.2023 г  
Отпечатано в ООО “Credo Print”,  
г. Ташкент, ул. Богишамол 160.

Главный редактор: Даминов Б.Т  
Заместитель главного редактора: Гулямов С.С.  
Ответственный секретарь: Муратходжаева А.В.

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Аитов К.А. (Иркутск, Россия)  
Алимов А.В. (Ташкент)  
Арипова Т.У (Ташкент)  
Атаниязова А.А.(Нукус)  
Ахмедова Д.И. (Ташкент)  
Баранов А.А. (Москва, Россия)  
Боранбаева Р.З.(Астана, Казахстан)  
Джумашаева К.А. (Бишкек, Кыргызстан)  
Дэвил Д. (Рим, Итальянская Республика)  
Захарова И.Н (Москва, Россия)  
Зоркин С.Н. (Москва, Россия)  
Иванов Д.О. (Санкт-Петербург, Россия)  
Иноятов А.Ш.(Бухара)  
Малов И.В. (Иркутск, Россия)  
Матазимов М.М.(Андижан)  
Набиев З.Н. (Душанбе, Таджикистан)  
Орел В.И. (Санкт-Петербург, Россия)  
Разумовский А.Ю. (Москва, Россия)  
Рикардо С. (Вашингтон, США)  
Рузибоев Р.У.(Ургенч)  
Туйчиев Л.Н. (Ташкент)  
Хайтов К.Н. (Ташкент)  
Чонг Пёнг Чунг (Сеул, Южная Корея)  
Шамсиев А.М.(Самарканда)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Алиев М.М. (Ташкент)  
Амонов Ш.Э. (Ташкент)  
Арипов А.Н. (Ташкент)  
Асадов Д.А. (Ташкент)  
Ашуррова Д.Т. (Ташкент)  
Бахрамов С.С. (Ташкент)  
Бузруков Б.Т. (Ташкент)  
Даминов Т.О. (Ташкент)  
Золотова Н.А. (Ташкент)  
Иноятова Ф.И. (Ташкент)  
Искандаров А.И. (Ташкент)  
Камилова А.Т. (Ташкент)  
Кариев Г.М. (Ташкент)  
Каримжанов И.А. (Ташкент)  
Курбанов Б.Б. (Ташкент)  
Маджидова Ё.Н.(Ташкент)  
Рахманкулова З.Ж. (Ташкент)  
Саатов Т.С. (Ташкент)  
Сатвалдиева Э.А. (Ташкент)  
Содикова Г.К. (Ташкент)  
Таджиев Б.М (Ташкент)  
Таджиев М.М. (Ташкент)  
Ташмухамедова Ф.К. (Ташкент)  
Хасанов С.А. (Ташкент)  
Шамсиев Ф.М. (Ташкент)  
Шарипов А.М. (Ташкент)  
Шарипова М.К. (Ташкент)  
Шомансурова Э.А. (Ташкент)  
Эргашев Н.Ш. (Ташкент)

**PNEVMOKOKK INFESIYASIGA QARSHI EMLANGAN VA EMLANMAGAN ERTA  
YOSHLI BOLALARDA PNEVMONIYA KASALLIGINI DAVOLASHGA ZAMONAVIY  
YONDASHUVLAR**

Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Toshkent pediatriya tibbiyot institute;

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Shifoxonadan tashqari pnevmoniya dunyodagi eng keng tarqalgan yuqumli kasalliklardan biri hisoblanadi. Pnevmoniyaning etiologik omili pnevmokokkdir. Dunyoda har yili 100 ming aholiga nisbatan 10 dan 23 tagacha o'zgarib turadi. Yiliga 1,6 million kishi ushbu turkum kasallik(nozologiya)dan vafot etadi va ularning katta qismini besh yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qiladi.

Erta yoshli bolalarda pnevmoniyaning asosiy etiologik omili pnevmokokkdir. Dunyoda har yili 20 millionga yaqin pnevmokokcli pnevmoniya holatlari qayd etiladi, bu davrda sepsis va bakteriemiya rivojlanishi xavfi yuqori hisoblanadi [2]. Har yili pnevmokokcli pnevmoniyalar bilan kasalxonaga yotqizilgan bemorlarning 17-44 %ni bolalar va 13-34%ni kattalar tashkil qiladi [3]. Shuningdek shifoxonada o'lim darajasi 1-44% ni tashkil qiladi [4]. Pnevmoniyaning infeksiyalari bilan bog'liq bo'lgan eng muhim muammolardan biri - bu invaziv infeksiyalari mavjud bemorlardan ajratilgan patogenlarning antibiotiklarga chidamliligining oshishidir. Pnevmoniyaning antibiotiklarga nisbatan chidamliligi shu kungacha 10% dan oshmagani bo'sada, yopiq bolalar muassasalarida bu ko'rsatkich 3-5 baravar yuqoridir [1].

Emlash pnevmokokk infeksiyasining oldini olishning eng samarali va tejamkor chorasisidir. 2007 yilda JSST pnevmokokk infeksiyasi qarshi konyugirlangan vaksinalarni milliy emlash dasturlariga kiritishni tavsiya qildi [4].

2009 yilda JSST va UNICEF tashkilotlari mutaxassislari tomonidan pnevmoniya kasalligini besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining asosiy sababchisi deb e'lon qilindi va «Pnevmoniyaning oldini olish va nazorat qilish bo'yicha global harakatlar rejasiga (GAPP)» ishlab chiqildi. Unda pnevmoniyaning eng keng tarqalgan patogenlarini davolash bolalar o'limini kamayitirishning asosiy samarali usuli sifatida ko'rib chiqildi [2]. JSST ma'lumotlariga ko'ra 2012 yilda dunyo bo'ylab besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 6,6 millionta o'lim holati qayd etilgan va (178-sonli faktlar; 2013 yil sentabr) o'limning asosiy sabablaridan biri pnevmoniya bo'lib qolmoqda

(17%). Aholining kasallanish darajasini o'rganishga asoslangan tadqiqotlar Finlyandiya va AQShda 0 dan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida pnevmoniyaning etiologik omili hisoblangan pnevmokokklar 80% dan ko'proq'imi, kattaroq yoshdagagi bolalarda esa taxminan 50% ni tashkil etishini ko'rsatdi [10].

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda aholiga tibbiy yordam ko'rsatish darajasi sifat jihatidan yaxshilandti, kasalliklarni samarali davolash bo'yicha aniq maqsadli va keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi, zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, sezilarli ijobjiy natijalarga erishish imkonini berdi. Ayni paytda “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”ga muvofiq, mamlakatimiz aholisiga, shu jumladan, pnevmoniyaga qarshi tibbiy yordam ko'rsatishni va pnevmokokk infeksiyasi qarshi ommaviy emlashni joriy etish orqali yanada takomillashtirish rejalashtirilgan.

Erta yoshli bolalarda pnevmoniyaning boshqa barcha shakllariga qaraganda pnevmokokcli pnevmoniya bilan ko'proq o'pka to'qimasining zararlanishi va o'pka empiemasi rivojlanishi kuzatiladi. Bu esa salbiy oqibatlar xavfini yanada oshiradi. So'nggi yillarda pnevmokokk infeksiyasi va bu muammoning O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimidagi ahamiyati haqida ko'plab asarlar nashr etildi [13].

O'zbekistonda har yili 20 mingga yaqin bola ushbu kasalliklardan aziyat chekadi, ularning yarmini 5 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etidi [13]. Pnevmoniya kasalligiga moyillikning yosha bog'liqligi aniqlangan bo'lib, bu organizmda pnevmokokklarning ma'lum bir shtammiga – serotipiga o'ziga xos ravishda antitanachalarni ishlab chiqarish qobiliyati bilan bog'liq [13].

Butun dunyoda bolalar uchun pnevmokokk infeksiyasi qarshi vaksinalarni qo'llash bo'yicha ko'p yillik tajribalar ularning xavfsiz ekanligini ko'rsatdi [24]. Dunyoning turli mamlakatlarida namoyish etilgan bolalar va kattalar orasidagi pnevmokokk infeksiyasi qarshi emlashning yuqori samaradorligi immunizatsiyani



pnevmoniya bilan kasallanishni kamaytirish strategiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi [33]. Erta yoshli bolalarda pnevmokokk infeksiyasiga qarshi kurashish doirasida davom etayotgan ommaviy emlash jarayonlari immunoprofilaktikaning samaradorligini baholashni, emlashning o'z vaqtida bajarilishini shuningdek, immunizatsiya jadvaliga muvofiqligini ta'minlash zarurligini talab qiladi. Bu esa jarayonning samaradorligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi [34].

O'zbekiston Respublikasida erta yoshli bolalar orasida pnevmokokk infeksiyasiga qarshi rejali emlash dasturini amalga oshirish bo'yicha 7 yillik tajribaga qaramay, pnevmokokk infeksiyasining eng keng tarqagan klinik nozologik shakli sifatida shifoxonadan tashqari pnevmoniyaning samaradorligini chuqur baholash, zamonaviy davolash usullarini tahlil qilish, pnevmokokk infeksiyasiga qarshi emlangan va emlanmagan erta yoshli bolalarda, ayniqsa, Janubiy Orolbo'yi mintaqasida shifoxonadan tashqari pnevmoniyani davolashga chuqur yondashuvlar amalga oshirilmagani ushbu ishning maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Pnevmonokk infeksiyasiga qarshi vaksinoprofilaktika nazariy asoslangan va amalda isbotlangan, samaradorligi yuqori bo'lgan usul bo'lib erta yoshli bolalar orasida keng qamrovli ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu boisdan rejali emlash uchun Milliy emlashlar taqvimiiga kiritilgan. Bolalar o'rtasida pnevmokokk infeksiyasiga qarshi 13 valentli vaksina (PIQV 13) dan foydalanilganda yuqori profilaktik samaradorlik va eng yaxshi xavfsizlik darajasi qayd etilganligi, pnevmokokk infeksiyasiga qarshi kurashda emlash jarayonini izchil olib borish imkoniyatini yaratadi.

Pnevmoniya kasalligini davolashda yuqori samaradorlikka erishishda kasallikni erta tashxislash, o'z vaqtida davolash va dastlabki antibiotikoterapiyani adekvat tanlash choralarli alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birlikda o'z vaqtida tashxis qo'yishda klinik – anamnestik va rentgenologik ma'lumotlarni batafsil va izchil tahlil qilish hamda ularning natijalariga asoslaniladi [1,4,10].

"Shifoxonadan tashqari pnevmoniya" atamasi bolaning tibbiy muassasada bo'lмаган holatda infeksiyani yuqtirib olishi natijasida kasallanganida yuritiladi. Shunga ko'ra pnevmoniya kasalligining rivojlanishi oddiy mikrobial muhitda sodir bo'lганligidan dalolat beradi. Bu esa bizga kasallikning etiologiyasini

yuqori ehtimollik bilan taxmin qilish imkonini beradi. Chunki bunday holatda pnevmoniyaning asosiy qo'zg'atuvchisi Streptococcus pneumoniae hisoblanadi. Ba'zan shifoxonadan tashqari pnevmoniya kasalligi Haemophilus influenzae, Mycoplasma pneumoniae, xlamediyalar (Chlamydia trachomatis - hayotning birinchi oyolaridagi bolalarda va Chlamydia pneumoniae - keyingi yoshdagи davrlarida) va respirator viruslar tufayli chaqiriladi. Pnevmoniya kasalligini davolashda yoki shunga o'xshagan boshqa yuqumli – yallig'lanishli kasalliklarni davolash uchun antibakterial dori-vositalarini tayinlashdan oldin eng avvalo kasallikning etiologik omilini aniqlash lozim. Biroq, "Kasalliklarning xalqaro statistik tasnifi va salomatlik bilan bog'liq muammolari (KXT-10)" o'ninchи qayta nashriming pnevmoniya rubrikatsiyasida, qat'iy ravishda "etiologik asosda qurilishi kerak", deb belgilangan tamoyiliga qaramasdan, aksariyat hollarda shifoxonadan tashqari pnevmoniya kasalligi bilan og'rigan bemor bolalarda to'g'ri mikrobiologik tekshirish o'tkazilmaydi. Kasallikning etiologiyasi to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi esa "pnevmoniya kasalligi" deb qoida tariqasida – J18 kodi (qo'zg'atuvchisi aniqlanmagan pnevmoniya) ga ega bo'lismiga olib keladi va shunga mos ravishda antibakterial terapiya «ko'r-ko'rona» amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda antibiotiklarning dastlabki tanlovi noto'g'ri bo'lishi mumkin, bu esa davolashning samarasiz bo'lismiga olib keladi. Bolalarda shifoxonadan tashqari pnevmoniya kasalligining antibiotik terapiyasidagi xatolarni kamaytirish uchun so'nggi yillarda boshlang'ich antibiotiklarni empirik tanlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [11].

Pnevmonokklar butun dunyo bo'ylab erta yoshli bolalar orasida kasallanish va o'limning asosiy sababichisidir [10]. Kasallikning og'irlilik darajasiga ko'ra infeksiyaning invaziv va noinvaziv shakllari farqlanadi [33]. Invaziv pnevmokokk infeksiyasi (IPI) bakteriemiya, meningit, pnevmoniya va boshqa og'ir patologik asoratlarga olib keladi va qo'zg'atuvchi patogen steril lokuslardan - qon, orqa miya suyuqligi va plevral suyuqliklardan ajratiladi. Yuqori nafas yo'llarining infeksiyalari (otit, rinosinusit), pastki nafas yo'llari (bronxit) va boshqa nisbatan kam uchraydigan shakllar (konyunktivit, peritonit, artrit, poliartrit va boshqalar) kasallikning noinvaziv shakllariga tasniflanadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan xorijiy tadqiqotlarga ko'ra, bakterial pnevmoniyadagi pnevmokokklarning ulushi

68%ga yetadi [18]. Eng og'ir pnevmokokkli pnevmoniya 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi [7]. Xalqaro nashrlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, *S. pneumoniae* 25-35% holatda shifoxonadan tashqari va 3-5% holatda shifoxona ichi pnevmoniyalarda namoyon bo'ladi [18]. Ba'zi rus mualliflarning fikriga ko'ra, Rossiyada pnevmokokkli pnevmoniya bilan kasallanish darajasi, maktabgacha yoshdagি bolalar orasida 90% va kattalar orasida 75%ga yetadi[11]. Shuningdek 15 yoshgacha bo'lgan bolalarda pnevmokokk etiologiyali pnevmoniya bilan kasallanish darajasi 100 ming kishiga nisbatan 490 holatni, 4 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida esa 100 ming bolaga nisbatan 1060 ta holatni tashkil qiladi. Eng yuqori o'lim darajasi o'pka empiemasi bilan asoratlangan pnevmokokkli pnevmoniyada qayd etilgan (2/3 holatda) [23].

Daminov T. A. va hammualliflari (2013) ma'lumotlariga ko'ra, bir yoshgacha bo'lgan bolalarda (hayotning bиринчи yildagi bolalarni pnevmokokk infeksiyasiga qarshi ommaviy emlash boshlanishidan oldin) shifoxonadan tashqari pnevmoniya bilan kasallanish 100 mingta chaqaloqqa nisbatan 1216 holatni tashkil etgan va 1-2 yoshdagи bolalar orasida esa – bu ko'rsatkich 100 mingta bolaga nisbatan 1444tani tashkil qilgan. Shuningdek. 2013 yilda Toshkent shahrida (hayotning bиринчи yildagi bolalarni pnevmokokk infeksiyasiga qarshi ommaviy emlash boshlanishidan oldin) bolalarda pnevmokokkli pnevmoniyaning uchrash darajasi 55, 4% ni tashkil etdi [13].

Pnevmonokk infeksiyasining tarqalish o'choqlari odatta yopiq bolalar muassasalarida ya'ni mакtab-internatlar, mehribonlik uylari va bolalar bog'chalarida pnevmokokk infeksiyalarining tashilishi va tarqalishi yuqori darajada bo'ladi [7]. Katta epidemik o'choqlarning paydo bo'lishiga bolalarning bir xonada to'planishi, oilaning moddiy darajasining pastligi va boshqa ijtimoiy omillar sabab bo'ladi [32]. Pnevmonokk infeksiyasining tarqalishi bo'yicha eng aniq ma'lumotlar iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan olingan bo'lib, ushbu hududlarda maxsus klinik tadqiqotlar o'tkaziladi. Evropada pnevmokokk infeksiyasining chastotasi yiliga har 100 mingta aholiga 100-250 ta shifoxonadan tashqari pnevmoniya, 15-25 ta holatda sepsis, 1-2,5 ta holatda esa meningit deb baholangan [26]. Hisob-kitoblarga ko'ra Shimoliy Amerika va G'arbiy Evropada har yili 2 yoshgacha bo'lgan 100 mingta bolaga pnevmokokkli meningitining 10 ta

holati, invaziv pnevmokokkli infeksiyalarning 100 ta holati, pnevmokokkli pnevmoniyaning 1000 ta holati va o'tkir o'rta otitning 20 mingta holati to'g'ri keladi [10].

Pnevmonokk infeksiyasi havo-tomchi yo'li orqali yuqadi, *S.pneumoniae* yuqori nafas yo'llarida kolonizatsiyalanadi va normal mikrofloraning bir qismiga aylanadi. Bola tug'ilganidan so'ng yuqori nafas yo'llarida uning kolonizatsiyasi boshlanadi va 2 oyligida pnevmokokklar 21-46% holatda kasallik chaqiradi. O'rtacha tashuvchanlik muddati taxminan 2,2 oyni tashkil qiladi. 20% holatda bir xil serotip bilan reinfeksiya holati kuztilishi mumkin. Pnevmonokk infeksiyasini barcha shakllarining patogenezida, ayniqsa, hayotning bиринчи yillardagi bolalarda asimptomatik yoki burun bitishi kabi klinik belgililar bilan o'tishi mumkin [18]. Pnevmonokokklar 0,5–1,25 mmk o'lchamdagи oval yoki lansetsimon hujayralar bo'lib, diplokokklar shaklida o'sadi, ba'zida qisqa zanjirlar ham hosil qilishi mumkin. Pnevmonokokklarning 90 dan ortiq serotiplari mavjud bo'lib, ulardan 20 tadan ortig'i odamlarda kasallik keltirib chiqaradi. Pnevmonokkkning invazivligi uning inson organizmining til-yutqun sohasida koloniylar hosil qilish qobiliyati bilan belgilanadi [5]. Patogen kapsula yordamida shilliq qavatga yopishadi. Aynan ushbu kapsula immun tizimini bostiradigan ya'ni pasaytiradigan kapsula hisoblanadi. Kasallikning u yoki bu shakli bilan kasallanish immun-himoya mexanizmining buzilish darajasiga bog'liq [5,6]. Hujayra devorining tarkibi, shuningdek, inson qon zardobidagi C-reakтив oqsil bilan o'zaro ta'sir qiluvchi xolin saqlovchi teixoik kislotani (substansiya) o'z ichiga oladi [6]. Pnevmonokk qarshi vaksinalarni qo'llashdan maqsad ana o'sha polisaxarid kapsulaga zarba berishdir [26]. Kasallikning o'tish davri (prognozi) immunitet holati, antibakterial terapiyani o'z vaqtida boshlash, pnevmokokk turi va uning biologik xususiyatlari kabi turli xil omillarga bog'liq. Kasallikning rivojlanishida insonning yoshi ham muhim rol o'ynaydi, bu inson organizmining immun tizimida o'ziga xos maxsus antitanachalarni ishlab chiqarish qobiliyatiga bog'liq. 5-7 yoshli bolalarda 6A, 14, 18C va 19F serotiplariga ta'sir qiluvchi antitanachalarning darajasi 8-10 yoshdagи bolalardagiga nisbatan past bo'ladi. Erta yoshli bolalarda 23F serotipi ham immunreaksiya ortib boradi va 13-15 yoshgacha yuqori darajaga etadi [28]. Kasallikning og'irligiga va o'lim ehtimoliga pnevmokokkning



serotipi va mikroorganizm kapsulasining kattaligi (uning qalinligi) ta'sir qiladi. D. Goldblatt va boshqalar (2012y) ko'p yillik kuzatuvlariga ko'ra barcha pnevmokokklar orasida serotip 3 ko'proq tajovuzkor ekanligi ko'rsatilgan, shuning uchun 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni himoya qilishda ushbu serotipga xos antitanalarning yuqori konsentratsiyasi talab qilinadi[82]. Shunday qilib, 3-serotipning aniq kapsulasi uzoq muddatli tashuvchanlik hamda antibakterial dorilarga chidamlilikni shakllantirishga yordam beradi [19].

O'tkir o'rta otitni keltirib chiqaradigan pnevmokokklarning shtammlari orasida ko'proq 14 va 19F ajralib turadi [18]. Bolalar orasida esa ko'pincha 6A, 6B, 9V, 14, 19A, 19F va 23F serotiplari ajratilganligi aniqlangan. Aynan shu bir biriga o'xhash S. pneumoniae serotiplari shilliq qavatdagi kolonizatsiyasining yuqori zichligi va antibiotiklarga qarshilik ko'rsatishga moyilligi bilan ajralib turadi. Pnevmoniyaning murakkab shakllarini ko'pincha 1, 3, 7F, 14 va 19A serotiplari keltirib chiqaradi [9]. Metatahlil ma'lumotlariga ko'ra (1990-2012) Osiyo mintaqasida pnevmakokka qarshi 7 valentli vaksina (PKV7) qo'llanishi fonida 3 va 19A serotiplarning ulushi ko'paygan va asoratlanuvchi pnevmoniya keltirib chiqaruvchi 14 serotipi esa kamroq tarqalgan [16]. V.K. Tatochenko va L.K. Katosova (1990) malumotlariga ko'ra, Rossiyada mamlakat mintaqasiga qarab 7 valentli pnevmakokk infeksiyasiga qarshi vaksina (PIQV7) serotiplari invaziv shtammlarning 51-68%ni va tashuvchilardan ajratilgan shtammlarning 70-89%ni tashkil etishini aniqladi[31]. R.S. Kozlov ma'lumotlariga ko'ra (1999-2004) 19F, 6V va 14 pnevmokokk serotiplari 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida eng ko'p uchrashi aniqlangan [21]. Emlashdan oldingi davrda dunyo bo'ylab pnevmokokkning 6, 14, 19, 23 serotiplari ustunlik qilgan [24].

Rossiyada, emlashdan oldingi davrda, boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, invaziv infeksiyalar uchun 14 va 19F ustunlik qildi [3]. Mamlakatda pnevmokokklarning o'ziga xos landshaftini nisbatan yuqori qismi bo'lgan serotip-3 bilan bog'lash mumkin (10% gacha)[3,4]. 1980-1990 yillarda ushbu serotiplar (boshqa mamlakatlarda serotip-1) ko'pincha bolalar orasida asorat qoldiruvchi pnevmoniya bo'lgani bilan ajralib turgan [18].

Shifoxonadan tashqari pnevmoniya kasalligining rivojlanishida eng dolzarb va ahamiyatli S. pneumoniae serotiplari 6 A/B/

C/D, 14, 15 A/F va 19F edi [6]. Barnaulda (2011) ajratilgan nazofarengеal shtammlarning serotiplanishi bilan 3 va 19F yetakchi serotiplar bo'lib chiqdi, ularning umumiyligi ulushi 75% ni tashkil etdi [8]. Qozon shahridda o'tkazilgan S. pneumoniae serotiplarini tahlil qilish natijasida "vaksinalangan" variantlarining ustunligi quyidagicha aniqlandi – serotiplar 3, 6A (4,3%), 6V (3,4%), 14, 19A, 19F (3,4%) va 23F hamda bitta "vaksinalanmagan" shtamm 33F (3,4%) ni tashkil qilgan [1]. O'tkazilgan laboratoriya tekshiruvlariga ko'ra, rentgenologik tasdiqlangan ShTP kasalligi bilan kasallangan 336 nafar bemor bolaning 14,6 %da qonida pnevmokokk infeksiyasi aniqlangan. Ajratilgan pnevmokokklar orasida bakteremiya bilan kechgan pnevmoniya 14,3% hollarda, 3 serotipi, 6 serograhi 12,2%, 9V/A, 14, 23F va 10A serotiplari 10,2% da namoyon bo'lgan[4].

AQShda ShTP bilan kasallangan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishning yillik iqtisodiy xarajatlari 10 milliard dollargacha, Rossiyada 1990-2000 yillarda 15 milliard rublgacha deb hisoblangan [5].

Pnevmonokk infeksiyasiga qarshi emlashning iqtisodiy samaradorligi shubhasiz yuqoridir [17].

Keyinchalik AQShda 2001-2010 yillarda pnevmokokk infeksiyasiga qarshi 7 valentli vaksinasini emlashdan so'ng o'tkir o'rta otitni davolash xarajatlari 32,3%ga kamaydi, shifoxonadan tashqari pnevmoniya bilan og'igan erta yoshli bolalarni kasalxonaga yotqizib davolash va ambulator tibbiy xizmatlar xarajatlari deyarli 2 baravar kamaydi.

Mo'g'ulistonoda ommaviy emlash joriy etilganidan keyingi iqtisodiy samaradorlik tahlil qilinganda har yili 100000 dan 200000 dollargacha bo'lgan byudjet mablag'lari tejalgani ko'rsatib o'tilgan [1]. A.V.Rudakova (hammualliflari 2011) ma'lumotlariga ko'ra 5 yil davomida muntazam o'tkazilgan rejali emlashdan so'ng to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar 19,69 milliard rublga va bilvosita xarajatlarning 37,4 milliard rublga kamayishi qayd etilgan[5].

Shifoxonadan tashqari pnevmoniyaning epidemiologik jarayonini boshqarishning eng samarali tizimi – epidemiologik nazoratdir. Rossiyada Yu.V. Demina (2014) tomonidan ishlab chiqilgan shifoxonadan tashqari pnevmoniyani epidemiologik nazorat qilish dasturining asosiy yo'nalishlari belgilangan bo'lib, birinchi navbatda shifoxonadan tashqari pnevmoniya holatlarini aniqlash va qayd etish tartibi hamda infeksiya o'choqlarini epidemiologik nazorat qilish orqali

infeksiyaning epidemik o'choqlarida ishslash algoritmiga muvofiq kasallik monitoringini yuritishni o'z ichiga oladi [4]. Kasallik monitoringi bilan bir qatorda, ShTPning epidemiologik nazorati patogenlarning xususiyatlarini va ularning aylanishini kuzatishni, mikroiqlim xususiyatlarini o'rganishni, shuningdek immunologik monitoringni (immunizatsiyani nazorat qilish va populyatsiyada immunitetning intensivligini o'rganish) olib borishni ta'minlaydi [7].

Emlash dasturlariga pnevmokokk infeksiyasiga qarshi vaksina (PIQV) kiritilishidan oldin, 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda invaziv pnevmokokk infeksiyasi (IPI) bilan kasallanish ko'rsatkichi 100000 nafar bolaga 17,1 dan 94,7 gacha bo'lgan, Shimoliy Amerikada eng yuqori va Evropa mamlakatlarda eng past ko'rsatkich qayt etilgan [3]. AQShda 7 valentli PIQV bilan emlangan bolalar (2000) o'rtaida o'tkazilgan klinik tadqiqotlar 2 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida invaziv pnevmokokk infeksiyasining aniq pasayish tendensiyasini aniqladi. 2001 yilda pnevmokokk infeksiyasining invaziv shakllari bilan kasallanish darajasi 1998 yilga nisbatan 69 %ga kamaydi. Shu bilan birga, emlash serotipleri tufayli IPI bilan kasallanish sezilarli darajada, ya'ni 78%ga kamaydi [18].

Qo'shma Shtatlarda 13 valentli PIQV joriy etilganidan 3 yil o'tib 2 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida etiologiyasi aniqlanmagan shifoxonadan tashqari pnevmoniya kasalligi bilan kasalxonaga yotqizilgan bemorlar soni 21% ga kamaydi. Shu bilan birga 13 valentli PIQV otit bilan kasallanish darajasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Turli xil etiologiyali otit bilan kasallanish darajasi 35%ga, pnevmokokk etiologiyali o'rta otit bilan kasallanish esa 53% ga kamaydi [27]. Shunday qilib, 1998-2001 yillarda invaziv pnevmokokk infeksiyasi (IPI) bilan kasallanish yosh bolalar orasida uchdan birga va 65 yoshdan oshgan odamlarda 18% ga kamaydi [20]. Evropa mamlakatlari orasida Fransiya birinchilardan bo'lib pnevmokokk infeksiyasiga qarshi emlashni joriy qilgan (2003), R. Cohen et al (2016) ma'lumotlariga ko'ra, 2014 yilga kelib shifoxonadan tashqari pnevmoniyaning uchrash chastotasi 32% ga kamaygan [17].

Buyuk Britaniyada 2006 yilda pnevmokokk infeksiyasiga qarshi emlash profilaktik emlash taqvimiga kiritilgach, 10 yildan o'tib invaziv pnevmokokk infeksiyasi (IPI) bilan umumiy kasallanish darajasi 37% ga kamaydi. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida invaziv pnevmokokk

infeksiyasiga (IPI) chalinish darajasi 2013 yildan beri barqaror natijada saqlanib qolmoqda [13].

Daniyada PIQVni milliy immunoprofilaktika dasturlariga kiritilishi (2000–2013 yillar) natijasida aholi orasida umumiy o'lim ko'rsatkichining 100 mingga 3,4 dan 2,4 gacha (28% ga) pasayishiga olib keldi [21]. Shvetsiyada 2012 yilga kelib PIQV-13 ning joriy etilganidan so'ng turli xil etiologiyali pnevmoniya kasalligi bilan kasalxonaga yotqizish darajasi 21% ga qisqardi [16].

Xitoyda PIQV joriy etilishidan oldin pnevmokokklarning tashuvchanlik darajasi bog'cha tarbiyalanuvchilari orasida eng yuqori ko'rsatkichlarda (25,8%) bo'lgan va yoshga qarab kamayib borgan. PIQV-7 bilan emlash davri mobaynida pnevmoniya bilan kasallanish 14,1% ga keskin kamaydi, shuningdek bolalarda pnevmokokklarning penitsillinga chidamliligi darajasi ham keskin kamaydi. 19F, 6A va 23F serotipleri eng ko'p ajratilgan [5].

Pnevmonokk infeksiyasiga qarshi konyugirlangan vaksinaning kiritilishi antibiotiklarga chidamli shtammlar tufayli invaziv pnevmokokk infeksiyasi (IPI) darajasiga ham ta'sir ko'rsatib 2 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida ularning kasallaninshini 35% ga kamaytirdi [14].

2009-2011 yillarda PIQV-10 va PIQV-13lardan foydalanish fonida serotipler landshafti o'zgardi. PIQV-13 dan foydalanganda 1, 3, 6A, 7F va 19A serotiplerining kamayganligi qayd etilgan. AQShda qo'llaniladigan vaksinani tashkil etuvchi shtammlar tufayli o'tkir o'rta otit kasalligining kamayishi asosan 19A serotipi tufayli yuzaga kelgan [11]. PIQV-13 dan foydalanish fonida pnevmokokklarning 24F, 22F, 8 va 15A serotipleri ko'proq ajralib turadi [21]. PIQV 10 dan foydalanish 3 va 19A serotiplerining ustunligiga olib keldi. 19A serotipi chaqaloqlarni mutazam emlash uchun PIQV7 dan foydalanadigan mamlakatlarda hamda aholini emlashning tanlab amalga oshiradigan mamlakatlarda (Rossiya, Xitoy, Hindistonda) asosiy patogenga aylandi. Ushbu serotip antibiotiklarga chidamlilagini tezda rivojlantirishga qodir hisoblanadi [3]. PIQV10 dan foydalanganda ushbu serotipga qarshi antitanalarining himoya darajasiga erishilmagan, shuning uchun PIQV7 va PIQV10 vaksinasidan foydalangan mamlakatlarda 19A serotipini tashish holatlari ko'paygan va invaziv pnevmokokk infeksiyasi (IPI) bilan kasallanish nafaqat emlanmaganlar orasida, balki emlanganlar orasida ham oshishi kuzatilgan [13].

Vaksinatsiya taqvimiga optimal rioya qilmaslik natijasida populyatsion effekt kechroq rivojlanib, zaif ifodalanishi mumkinligi aniqlangan [12].

Konyugatsiyalangan pnevmokokk vaksinalarining joriy etilishi pnevmoniyaning umumiyligi etiologiyasiga ham ta'sir ko'rsatdi. PIQVlarning joriy etilishidan oldin 2004 yilda I.C. Michelow et al (2004) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, rentgenologik tasdiqlangan ShTP tashxisi bilan kasalxonaga yotqizilgan bolalar tekshirilganda 60% holatda bakteriyalar aniqlangan, ularning 73%ni pnevmokokklar tashkil qilgan, 45% bolalarda esa viruslar aniqlangan[28].

O'zbekistonda pnevmoniya bilan kasallanish darajasini kamaytirish uchun bolalar va kattalarni o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatgan pnevmokokk infeksiyasiga qarshi emlash joriy qilingan.

### **Bolalarda konjugatsiyalangan pnevmokokk vaksinalari bilan emlashga immun tizimining reaksiysi**

Bugungi kunda O'zbekistonda pnevmokokk infeksiyasingning oldini olish maqsadida 2 yoshdan oshgan bolalar va kattalar uchun polisaxarid 23 valentli («Pnevmo – 23») va konyugatsiyalangan 10 valentli («Prevenar») vaksinalari ro'yxatga olingan va ulardan foydalanishga ruxsat berilgan. Pnevmo-23ning antigenik tarkibi pnevmoniya va o'tkir bronxit bilan og'rigan sog'lom tashuvchilardan ajratilgan pnevmokokklarning 90% xususiyatlarga mos keladi. Sog'lom tashuvchilardan ajratilgan pnevmokokklarning atigi 5 serotipi (21, 24, 25, 29, 38) va pnevmoniya bilan kasallangan bemorlardan ajratilgan 7 serotipdan faqat bitta serotipi (24) yo'q.

PIQV 10 tarkibiga kiruvchi va/yoki o'zaro reaksiyaga kirishuvchi serotipli pnevmokokklar 1, 4, 5, 6B, 7F, 9V, 14, 18C, 19F, 23F dir[1, 6, 26, 27]. Polisaxaridlar T-mustaqil mexanizm orqali immun javob reaksiyasini hosil qiladi, shuning uchun ular bir yoshdan oshgan bolalarda antitelolar hosil bo'lishini stimullaydi va 6A, 14, 19F va 23A serotiplariga 5 yoshgacha yuqori titr hosil bo'lmaydi. Emlashdan keyin qonda pnevmokokka qarshi o'ziga xos IgM va IgG antitanalari hosil bo'ladi. Maxsus IgMlar «Pnevmo-23» qabul qilinganidan 5-8 kun o'tgach aniqlanadi, ammo bir necha oydan keyin ular aniqlanmaydi. Emlashdan 70-100 kun o'tgach IgGning cho'qqi darjasiga erishiladi va ular taxminan besh yil davom etadi, so'ngra asta-sekin pasayib boradi va emlashdan oldingi darajaga qaytadi. Turli

mualliflar himoya titrlarini qonda 0,05 dan 0,4 mkg/ml oralig'ida bo'lgan har xil darajalarda ta'riflaydilar, ammo ko'pchilik tadqiqotchilar emlashdan 6-8 hafta o'tgach aniqlashga kirishishgan, keyinroq esa bu muddatdan ko'proq davrdan so'ng qilish kerakdir degan hulosaga ham kelishgan[21]. Polisaxarid vaksinalari T-ga bog'liq immunitetni rag'batlantirmaydi. Shuning uchun T-hujayrali immunologik xotira hosil qilmaydi, shu sababli vaksinani qayta yuborish uzoq muddatli kuchaytiruvchi ta'sir paydo qilmaydi. Biroq, emlashdan so'ng gamma-interferonni ishlab chiqaradigan Th1 bilan bog'liq hujayralarning ko'payishi qayd etildi va IL-4 va IL-5 - Th2 markerlarini ishlab chiqarishda o'sish kuzatilmadi. Bundan tashqari oqsilli antigenlarga javob kamaydi. Ushbu faktlarning klinik talqini aniq emas [31].

Titrlarning eng katta o'sishi IgG2 kichik sinfining antitanalari uchun qayd etilgan. Polisaxarid vaksinasi IgA sintezini, shu jumladan sekretor IgA2 kichik sinflarini ham boshqaradi. Ular bakteriya tashuvchilarda ham sintezlanadi, ammo emlashdan keyin IgAreaksiyasi infeksiyaga qaraganda ancha uzoqroq bo'ladi. Ba'zi odamlarda vaksinaga kiritilgan pnevmokokknинг individual serotiplariga immunitetning pasayishi kuzatiladi. Bunga genetik omillar sabab bo'lishi mumkin: og'ir G2 zanjirlari(G2s(23) allotip) va engil immunoglobulin zanjirlarining Km sintezini kodlovchi genlar, shuningdek, B hujayralarining yakuniy o'ziga xosligini aniqlaydigan V-sohaning o'zgaruvchanligi. Bu jarayon HLA tizimi tomonidan ham tartibga solinadi [33].

Yangi tug'lgan chaqaloqlarda pnevmokokk infeksiyasingning polisaxaridlariga antitanalarning ma'lum darajasi aniqlanadi, so'ngra 2 oydan keyin kamayadi. Buning sababi ularning ona antitanalari ekanlidir. Taxminan bir yoshda emlashning birinchi dozasi kiritilishi bilan 3, 4, 8, 9N shtammlariga yuqori immunitet reaksiyasi, 1, 2, 7F, 18C, 19F ga antikorlarning o'rtacha darajasi, 25 va past titr 12, 14, 23, 6A, 6B gacha hosil qilinadi.

IgG ning barcha subbirliklari sintezlanadi, shu bilan birgalikda katta yoshdagilar singari asosan IgG2 ham sintezlanadi. Vaksinaning ikkinchi dozasini yuborish odatda antitelo titrlarining ko'payishiga olib kelmaydi. IgA sintezi IgG ga o'xshaydi, antikorlarning mahalliy himoya funksiyasi har ikkala sinfdagi antitelolarning qon zardobidan o'rta quloq bo'shlig'iga quyilishi va bolani o'tkir o'rta otit kasalligidan himoya qiluvchi shilliq qavat immunitetini shakllantiradi[13].

## Konyugatsiyalangan vaksinalar - T ga bog'liq antigenlardir

Vaksina antigeni dendritik hujayralar tomonidan tanlab olinadi va parchalanadi. Molekulyar qayta ishlashdan so'ng epitoplar II sinfning asosiy gistokompatibilik (gistologik muvofiqlik) kompleksining antigenlari bilan birgalikda CD4+ hujayralariga taqdim etiladi. 2 va 4 interleykinlar (IL-2, IL-4) ta'sirida Th0 va Th2 ning klonal faollashuvi sodir bo'ladi, oxirida IL-4,5,6 ni sintez qiladi. Bu B hujayralarining antitelolar ishlab chiqaruvchiga aylanishini rag'batlantiradi. T-va B-hujayralarning germinal markazdagi o'zaro ta'siri natijasida B-hujayralar xotira hujayralariga va plazmatik antitelolar ishlab chiqaruvchi hujayralarga differensiallanadi. B-limfotsitlar sayqallanganidan so'ng T-hujayralari uchun antigenga yo'naltiruvchi funksiyani ham bajaradi. Konyugat bir tomonidan tashuvchi va ikkinchi tomonidan esa yordamchi bo'lib, bu bola hayotning hatto birinchi oylarida ham kuchli T ga bog'liq reaksiyaga yordam beradi. Immunitetning dastlabki bosqichida past yaqinlikdagi B hujayralari faollashadi.

Ularning germinal markazda ko'payishi jarayonida immunoglobulinlarning o'zgaruvchan hududlarini kodlovchi genlar mutatsiyaga uchraydi va antigen ishtirokida yuqori yaqinlikdagi B-hujayra klonlari tanlanadi. Bu yuqori darajadagi xususiyatlarga ega antitelolarning sintezlanishiga olib keladi. Past avidli antitelolarni sintez qiluvchi hujayralar 2 hafta ichida apoptozga uchraydi. Emlashdan 6-7 hafta o'tgach, yuqori avidli antitanachchlarni ishlab chiqaruvchi hujayralar to'planib yopinchiqqa aylanadi. Konyugirlangan vaksinalar orqali yaratilgan eng muhim himoya mexanizmi oqsilga xos T-xotira va polisaxaridga xos B-xotira hujayralarining shakllanishi bo'lib, organizm infeksiya bilan aloqa qilganda yuqori konsentratsiyali antitelolarni yaratishga imkon beradi [19].

Pnevmonokkk infeksiyasiga qarshi konyugatsiyalangan 7 valentli "Prevenar" vaksinasining kiritilishi *Streptococcus pneumoniae* serotiplarining 4, 6V, 9V, 14, 18C, 19F, 23F kapsulali polisaxaridlariga qarshi funksional antitelolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Hayotning birinchi yilidagi bolalarda 2 oylikdan boshlab va bir qator birlamchi emlashdan keyin to'liq immunitet reaksiyasini hosil qiladi.

Antitelolarning himoya darajasi haqidagi ma'lumotlar turli mualliflarda 0,2 mg/ml dan

0,35 mg/ml gacha o'zgarib turgan. JSST himoya darajasidan yuqori bo'lgan barcha serotiplarga antitelolarning titrlarini 0,35 mkg/ml ekanligini aniqladi[25]. Uch dozali vaksina bilan emlangan 212 nafar bolani tekshirganda 6V va 23A pnevmokokk shtammlarining 92 %da  $\geq 0,15$  mg/ml titr, 4-turda 100%, 19F uchun 90%, shuningdek emlanganlarning 51 %da 9V uchun titr 1,0 mg/ml dan yuqori ekanligi aniqlandi. Yosh bolalarda vaksina serotiplari sababli invaziv pnevmokokk infeksiyasiidan himoyalanish 90% dan ooshadi va 2-3 yil davom etadi, balki bu ko'rsatkich ancha uzoqroq ham davom etishi mumkin [17]. Vaksina T-hujayra, gumoraljavobreaksiyasi va shilliq qavat immunitetini hosil qiladi. Natijada nazofarengeal bakteriya tashuvchanlikning pasayishiga olib keladi [20]. Prevenar vaksinasining beshta serotipi antibiotiklarga chidamli bo'lgan pnevmokokk infeksiysi shtammlarini o'z ichiga oladi.

## Pnevmonokkk qarshi vaksinalarning xavfsizligi va samaradorligi

Hozirgi vaqtida "Prevenar-13" konyugatsiyalangan vaksinasini qo'llash bo'yicha xorijda ham, O'zbekistonda ham katta tajriba to'plangan. Reaktogenlik (nojo'ya ta'sirlar)ni o'rganish davomida polisaxaridli vaksina o'zining yuqori xavfsizligini ko'rsatdi. Emlanganlarning 5-10%da preparat organizmga kiritilgandan so'ng dastlabki uch kun ichida mahalliy reaksiya kuzatilgani qayt etilgan. Birinchi kunida ko'pincha in'eksiya sohasida og'riq va 2,5 sm dan oshmaydigan shish shaklida kuzatilgan [11]. Sog'lom bolalar emlashni yaxshi qabul qildilar, og'ir mahalliy reaksiyalarning rivojlanishi haqida xabarlar yo'q. Ayrim adabiyotlarda jigar transplantatsiyasidan oldin emlangan ikki yoshli bolada bitta anafilktoid reaksiya kuzatilganligi keltirilgan. Uning rivojlanishi oldingi bakteriemiya natijasida hosil bo'lgan pnevmokokk polisaxaridlariga xos IgE antitelolarning yuqori titri bilan bog'liq bo'ldi [23].

Surunkali nospetsifik o'pka kasalliklari, bronxial astma bilan og'rigan bolalarni immunizatsiya qilish asosiy kasallikning qaytalanish chastotasini va pnevmokokka sezgirlikni pasaytirdi, bu bronxial astmaning infeksiyaga bog'liq kuchayishini rag'batlantirdi [4]. Rossiyada 2009 yil yanvar oyidan beri Qo'shma Shtatlarda 2000 yildan beri 2 oylikdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni emlash uchun qo'llanilib kelinayotgan pnevmokokk



infeksiyasiga qarshi konygirlangan 7 valentli "Prevenar" vaksinasi (PIQV-7) ro'yxatga olingan. Ushbu vaksina hozirgi vaqtida dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlarining o'nlab immunizatsiya dasturlariga kiritilgan [5].

Chaqaloqlarni 6 haftalik, 10 haftalik va 14 haftaliklarda emlash 2 oylik, 4 oylik va 6 oylikdagi kabi samaralidir. 12 oylikdan keyin qo'shimcha dozani qo'llash immun javobni yaxshilashi bilan birgalikda nazofarengeal tashilishini kamaytirishga ham ta'sir qiladi. Erta yoshli bolalarda 2+1 rejimining 3+1 bilan taqqoslagandagi samaradorligi haqida dalillar keltirilgan [28]. Ko'pchilik davlatlar chaqaloqlik davrida (masalan, 2 va 4 oylikda) ikkitalik dozadan foydalanishadi va 12-13 oylikda uchinchi dozadan foydalanadilar. 2007 yil oktyabr oyidan boshlab AQSh immunizatsiya amaliyoti qo'mitasi PIQV-7 bilan to'liq emlanmagan sog'lom bolalar uchun emlashni 24-59 oyлarda deb tavsiya qiladi. Bunda 24-59 oylik bolalar to'liq emlanmagan taqdirda tibbiy ko'rsatmalarga asosan emlash jadvaliga muvofiқ 1 dozasi kiritiladi. Agar shu yoshdagи (24-59 oylik) bolaga ilgari 3 doza kiritilgan bo'lsa, 1ta doza tafsiya qilingan, agar 3 dozadan kam olgan bo'lsa, 8 hafta oralig'ida 2 martadan kiritish tafsiya qilingan. Agarda bola 2 yoshdan oshgan va ilgari PIQV-7ning uchta dozasini qabul qilgan bo'lsa, bu bolalar uchun eng muqobil variant 23 valentli polisaxaridli vaksinaning 1ta dozasini qo'llashdir [21].

### ShTP kasalligini davolash

